

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARGA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING METODIK USULLARI

Bekmuratova Shoxidaoy Ne'matjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

"Tasviriy san'at va misiqqa ta'limi" kafedrası PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, tasviriy san'at darslarida talabalarga differensial yondashuvning metodik usullari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, differensial, differentsiatsiya, kontentli, tarix, nazariy, metodik yondashuv, optimizatsiya, kompetensiya, metodologik, temperament, individual, kontrast, kasbiy-metodik, rivojlanish.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ИСКУССТВ

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальная проблема методологических методов дифференцированного подхода к обучению учащихся на уроках изобразительных искусств.

Ключевые слова: педагогическая технология, дифференцированный, дифференциация, содержание, история, теоретический, методологический подход, оптимизация, компетентность, методологический, темперамент, индивидуальный, контраст, профессионально-методический, развитие

METHODOLOGICAL METHODS OF DIFFERENTIAL APPROACH TO STUDENTS IN FINE ARTS LESSONS

Abstract: This article discusses the currently relevant issue of methodological methods of a differential approach to students in fine arts lessons.

Keywords: pedagogical technology, differential, differentiation, content, history, theoretical, methodological approach, optimization, competence, methodological, temperament, individual, contrast, professional-methodical, development

KIRISH

O'zbekistonning so'ngi yillarida ta'lim sohasida tub islohotlar sodir bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan

soʻzlari muhim ahamiyat kasb etadi. [1; 48 b.] Mazkur soʻzlarning negizida, oʻqitish metodikasini, taʼlim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishni bosqichma-bosqich tatbiq etish lozimligiga alohida urgʻu berildi.

Hozirgi paytda pedagogik texnologiya qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz darslarni tashkil etishning turli shakl va metodlarni ishlab chiqish yoʻnalishida muayyan tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Bizning ham bu boradagi tadqiqotlarimizda boʻlajak tasviriy sanʼat oʻqituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida optimizatsiyasi asosida rejalashtirish asos boʻlib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Biz qator adabiyotlarni oʻrganish jarayonida oʻquvchilarga individual yondashuv tushunchasiga berilgan taʼriflarni tahlil qilib chiqdik, bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, "Oʻquvchilarga individual yondashuv texnologiyasi – oʻquvchilarning rivojlanish koʻrsatgichi ularning qobiliyatlariga qarab, oʻquv yoʻllari, usullari, shakllari tanlab olinishiga qaratilgan pedagogik tizim loyihasini amalga oshirish" deb taʼrifladik.

V.YEremeyeva va T.Xrizmanlar [7;184 s.] bolaning oʻziga xos individualligi, oʻquvchilarga taʼlim jarayonida individual yondashuv zarurligini taʼkidlab, oʻqituvchilarga baʼzi tavsiyalarni beradi:

Hech qachon bolani biron bir narsaga qodir emasligi yoki unga tushunish qobiliyati yoʻqligi uchun haqoratimiz soʻzlar bilan urishmang. Hozir u sizdan kam narsani biladi, vaqti kelib, hech boʻlmaganda baʼzi sohalarda u sizdan koʻra koʻproq narsani bilib oladi.

Oʻquvchini tasviriy sanʼatdan qodir emasligi uchun ayblashdan oldin, qiyinchiliklarning mohiyatini tushunishga harakat qiling va muammoning yechimini topishga yordam bering. Oʻquvchini boshqa oʻquvchilar bilan solishtirmang, uning yutuqlarini koʻra biling. Birinchi darslarda oʻquvchini muvaffaqiyatsizliklari uchun asabiylashmang va oʻquvchini asabiylashtirmang. Qiyinchiliklarning obʼyektiv sabablarini topishga harakat qiling va kelajakka ishonch bilan qarang.

Shu bois tadqiqotimizda insonparvarlik paradigmasiga amal qilamiz, bunda ta'limni tabaqalashtirish talabalarni tanlash uchun emas, balki ularning o'z hayotidagi ma'nosini, uning traektoriyasini, qobiliatlarga ko'ra izlanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratishdan iboratlariga asoslanamiz. Bu borada:

1. Talabalarning ijtimoiy-madaniy farqlari: qadriyatlar, dinlar, turli oilaviy munosabatlar, tillar, moddiy qadriyatlar va madaniy xususiyatlar.

2. Talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning motivatsiyasini istagi, e'tibori, ijodkorligini ochib berish;

3. Bilimlarning kerakli hajmini o'zlashtirishda, aqliy rivojlanishdu o'rganish strategiyalarida kognitiv qobiliyatlaridagi farqlarni ajrata olishga ahamiyat qaratish muhim.

Talabalarni differensial ta'lim asosida tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlashda asosiy e'tibor differentsiatsiya pedagoglarning auditoriyadagi talabalar o'rtasidagi tafovutga javob berish harakatlaridan iborat. Qachonki, o'qituvchi eng yaxshi ta'lim tajribasini taklif etgan holda ta'limi berish uslublarini o'zgartirsagina, ta'limni differensiyallash imkoniga ega bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Differensial yondashuv asosida talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlashda pedagog rassomlar talabalarning tayyorgarligi, qiziqishlari yoki o'rganish profiliga qarab kamida to'rt guruhini farqlashi mumkin

Kontentli - talaba nimani o'rganishi kerakligi yoki talaba ma'lumotni qanday olishi mumkinligi;

Jarayonli - o'rganiladigan mavzu mazmunini anglash yoki o'zlashtirish uchun talaba shug'ullanadigan faoliyat;

Mahsuldor - talabadan bir bo'limda o'rgangan materiallarni mashq qilish, qo'llash va rivojlantirish bilan bog'liq yakuniy loyihalar;

O'quv muhiti - talabalarning faolligi va his qilish usullarini tanlash

Differensial yondashuv asosida talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlashning kontentli darajasidagi tarkibni farqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turli o'quv darajasidagi o'quv materiallaridan foydalanish;

- matnli materiallarni taqdimotga joylashtirish;
- talabalarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra turli topshiriqlardan foydalanish;
- mavzuni eshitish va vizual vositalar orqali taqdim etishga erishish;

Bu jarayonda qiyin o'zlashtiruvchi talabalarga g'oya yoki ko'nikmani qayta o'rganish yoki faol talabalarning fikrlash ko'nikmalarini kengaytirish uchun kichik guruhlar bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yishga erishish maqsadga muvofiq.

Differensial yondashuv asosida talabalarni tasviriy pedagogik tayyorlashning jarayonli darajasidagi o'quv faoliyatini differensiallash quyidagilarni o'z ichiga oladi;

-talabalar bir xil muhim tushunchalar va ko'nikmalar bilan ishlaydigan, lekin turli darajadagi yordam, qiyinchilik yoki murakkablik bilan davom etadigan bosqichli mashg'ulotlardan foydalanish;

-talabalarni alohida qiziqish uyg'otadigan mavzusini o'rganishga undaydigan motivatsion faoliyatlarini ta'minlash;

-faol talabalar ko'magiga ehtiyoj sezgan talabalar uchun manipulyatorlar yoki boshqa amaliy yordamlarni taklif qilishga doir topshiriqlar;

-o'zlashtirishi qiyin talabaga qo'shimcha yordam berish yoki faol talabani mavzuni chuqurroq o'rganishga undash uchun vazifalar berish samaradorlikni kafolatlaydi.

Talabalarni differensial yondashuv asosida tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlashning mahsuldor darajasida differensial topshiriqlar quyidagilar o'z ichiga oladi;

-talabalarga mavzu bo'yicha variantlarni berish (masalan, biror bir mavzu yuzasidan kompozitsiya) bilan ishlashni o'rganish va boshqalar;

-talabalarga o'z mustaqil ijodiy ishlari ustida individual yoki kichik guruhlarda kompozitsiyalar ishlashiga imkon berish;

-mazkur jarayonda beriladigan differensial topshiriqlar zarur elementlarni o'z ichiga olgan ekan, ularga mustaqil topshiriqlar taklif etishga undash.

Differensial ta'lim berish jarayonida o'quv muhiti quyidagi shartlarga javob berishi muhim:

- auditoriya tinch va chalg'itmasdan ishlash uchun sharoit shuningdek, talabalarni hamkorlikka taklif qiladigan kichik guruhlar bilan ishlashlarini amalga oshirish;
- turli ijtimoiy institutlarni aks ettiruvchi materiallar bilan ta'minlash;
- kichik guruhlarni o'quv-biluv imkoniyatlariga mos keladigan mustaqil ish uchun aniq ko'rsatmalarni belgilash;
- pedagog boshqa talabalar bilan band bo'lgan va ularga darhol yordam bera olmaganlarida talabalarga yordam olish imkonini beradigan tartiblarni ishlab chiqish;
- talabalarga ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyor bo'lish ijtimoiy zarurat ekanligini tushunishlariga yordam berish.

Bizningcha. differensial yondashuv asosida talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlash - talaba nimani bilishi, uni qanday o'rganishi, talaba o'rgangan narsalarini qanday amalda qo'llashi o'sha talabaning tayyorgarlik darajasiga, qiziqishlariga mos keladigan samarali usullar bilan ta'minlash jarayonidir.

Bugungi kunda pedagoglar talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuniga qanday kirishlari, konsepsiyam o'zlashtirish uchun qiladigan faoliyat turlari bo'yicha variantlarni taklif qilish orqali bir-biridan farqli talabalar bilan bog'lanish uchun differensial topshiriqlardan foydalanadilar.

Talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differensial ta'lim samarali o'qitish uchun asos yoki falsafa bo'lib, talabalarning yangi ma'lumotlarni (ko'pincha) tushunish uchun turli xil yo'llar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu borada talaba tasviriy pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini anglashi muhim hisoblanadi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda har bir talaba uchun mavzuni o'rganishni murakablashtiradigan hamda ko'nikmalarini rivojlantiradigan qiziqarli vazifalarni taklif etish lozim. Shunday ekan, talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differensial ta'limning imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun talabalarni differensial pedagogik ta'limga tayyorlashning o'ziga xos metodlarni tahlil qilish va taklif etish maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

Talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashda ijtimoiy sohadagi o'z bilimlarini tezda yangilash, o'zgaruvchan axborot muhitida moslashuvchan harakat qilish qobiliyati tahlil qilinadi. Fan, texnika va ijtimoiy sohada erishilgan yutuqlar, shuningdek, ishlab chiqarishni texnologiyalashtirish va axboratlashtirishning keng ko'lamli jarayonlarini tobora kengaytirish, yangi suhalarining paydo bo'lishi mutaxassislarining kasbiy malakasiga yuqori talablar qo'yimoqda.

Shu sababli talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashda ularning ijtimoiy mas'uliyatli, refleksiv, moslashuvchan, harakatchan, tez qaror qabul qilish qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirib borishini nazarda tutali. Bunda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik natijasi sifati hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida pedagog mutaxassislar tayyorlash sifati bilan bog'liqdir. Mazkur sifatlarning mazmuni quyidagicha ifodalanadi. Bu sifatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq va uyg'undur.

Talabalarda shakllantirish muhim bo'lgan mazkur sifatlar ijtimoiy tashkilotlarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda hayotning barqarorligi, kelajakka ishonch hamda "xodim va uning kelajakda istiqbollari uchun ochadigan" imtiyozli yondashuv bilan bog'liqligini unutib qo'ymaslik lozim.

Fikrimizcha, an'anaviy ta'lim tizimi har doim ham yetarli darajada talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash vazifasini bajara olmaydi. Ta'lim muassasalari bitiruvchilarining aksariyatida amaliy ko'nikma va zarur malakalar yetishmaydi. Zamonaviy ta'limning umumiy inqirozi ijtimoiy sharoitlar dinamikasiga sekin moslashishdan iborat bo'lib, ta'lim jarayonining barcha makonidagi (mintaqaviy va boshqa darajalarda) ta'lim jarayonining sifati o'rtasidagi tengsizlik shaxs, jamiyat, davlatning talablari va buyruqlari, ya'ni tez o'zgaruvchan jamiyatdan ta'lim tizimining kechikishi, ta'limning eskirgan paradigmasi o'rin egallaydi.

Ma'lumki, bo'lajak ijtimoiy pedagoglarda kasbiy sifatlarni rivojlantirish ham juda muhimdir, chunki ularning kasbiy faoliyati ko'p o'lchovli va ko'p qirrali hisoblanadi. Bu ularning kasbiy vazifalari (diagnostik, prognostik, proflaktik, inson huquqlari, psixologik, ijtimoiy pedagogik, tashkiliy va boshqalar);

- kasbiy faoliyat sohalari (ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash madaniyat, talim, huquq, davlat va nodavlat xizmatlari va boshqalar);
- kasbiy faoliyat ob'ektlari (shaxslar, oilalar, aholi guruhlari va jamoalar);
- mijozlarning muammolari - ijtimoiy xizmatlardan foydalanuvchilar (giyohvandlik, alkogolizm, yolg'izlik, ziddiyat, ishsizlik va boshqalar);
- ijtimoiy rollar (yurist, assistent, psixoterapevt, konfliktolog, animator, ekspert, jamoatchilik) va boshqalar.

Differensial ta'lim berish esa zamonaviy oliy ta'limdagi eng samarali texnologiyalardan biridir, chunki u talabalarda bilimdan differensial foydalaniish ko'nikmalarini shakllantiradi; elektiv va tor empirik yo'nalishni istisno qiluvchi murakkab muammolarni hal qilishning oqilona yo'llarini ishlab chiqa oladi; yangi fikrlash usulini, xususiy umumiylikni ko'rish va xususiylikni umumiy nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyatini ishlab chiqa oladi; ta'lim faoliyatini sezilarli darajada faoliyashtiradi.

Talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlash talabani doimiy o'zgaruvchan sharoitda yashash va ishlashga tayyor bo'lgan kuchli shaxs, o'z xatti-harakatlarini jasorat bilan mustaqil va noan'anaviy tarzda o'ylab, axloqiy tanlov qilish va o'zi va jamiyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, hayotini va boshqalarning hayotini mazmunli, qiziqarli hamda baxtli qilishga qodir bo'lishiga tayyorlash imkonini beradi.

Shunday qilib, faoliyat sub'ekti sifatida bo'lajak ijtimoiy pedagoglar to'g'risidagi gapirganda, quyidagilar haqida ta'kidlash kerak:

- pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini yaratuvchi barqaror shaxsiy sifatlar tizimini shakllantirish;
- qobiliyatlarni rivojlantirish;
- bilimlarni rivojlantirish;
- shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish;
- maqsadni begilash tizimini shakllantirish;
- jamoada munosabatlar tizimini rivojlantirish;
- shaxsning muayyan kasbiy jamoa vakili sifatida o'z-o'zini anglashini shakllantirish;
- adekvat o'z-o'zini baholashni shakllantirish;

- shaxsan mazmunli ustuvorliklarni belgilash qobiliyatini rivojlantirish;
- qurulmalarni shakllantirish;
- maqsad yo'nalishlarini shakllantirish;
- emotsional barqarorlik va emotsional ekspressivlikni shakllantirish,
- shaxsning irodaviy komponentini shakllantirish.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlash ijtimoiy faoliyatning talablariga to'la javob beradigan muayyan faoliyat sohasidagi kasbiy faoliyatni amalga oshirish va yuqori sifatli mehnat vazifalarini bajara olish qobiliyatini namoyon qilishga imkon beradi.

XULOSA

Differensial yondashuv asosida talabalarni tasviriy pedagogik faoliyatga tayyorlashda talabalarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishiari va o'rganish profilidagi xilma-xilligiga javob bera olish imkoniyatiga qarab taqsimlash lozim. Bu barcha talabalarni o'z ichiga olgan va muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan topshiriqlar tizimi bo'lishi shart. Chunki, differensial topshiriqlar har bir talabaning bo'lajak pedagog sifatida maksimal rivojlanishiga erishish uchun o'qitish usullarini faol ravishda tanlashning uyushgan, ammo moslashuvchan usuli sifatida nomoyon bo'ladi.

Ta'lim mazmuni talabalarning bilimiga qarab differensiallashni nazarda tutishi mumkin. Darsning eng asosiy maqsadi davlat ta'lim standartlarini qamrab olishi kerak. Chunki, ba'zi talabalar darsdagi tushunchalar bilan umuman tanish bo'lmasligi, ba'zi talabalar mavzuni qisman o'zlashtirib olishlari yoki mazmun haqida noto'g'ri fikr bildirishlari, ayrimlari esa dars boshlanishidan avval mazmunni o'zlashtirganliklarini ko'rsatishlari mumkin. Shu sababli mazkur jarayonda Blum taksonomiyasining turli darajalarini qamrab oluvchi talabalar guruhlarini uchun mashg'ulotlarni loyihalash orqali mazmunni farqlashi mumkin. Masalan, tushunchalar bilan tanish bo'lmagan talabalardan Blum taksonomiyasining quyi bosqichlari: bilim. tushunish va qo'llash bo'yicha topshiriqlarni bajarish talab qilinishi mumkin. Qisman o'zlashtirgan talabalardan qo'llash, tahlil qilish va baholash yo'nalishiari bo'yicha topshiriqlarni bajarish, o'zlashtirish darajasi yuqori

bo'lgan talabalardan esa baholash va sintez bo'yicha topshiriqlarni bajarish talab qilinishi mumkin.

Faydalanilgan adabitotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b
2. Abdurasilov S.F. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T.:«Fan va texnologiya», 2012. 232 b.
3. Boymetov B. Qalamtasvir. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T.: Musiqa, 2006. –216 b.
4. Bulatov S.S. Tasviriy sa'at asarlarini taxlil qilish jaryonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodlari \ \ Xalq ta'limi jurnali, 2019 yil, № 4. 68-73 b
5. Muratov X.X. Qalamtasvir. //O'quv qo'llanma. –T.: Ijod-print, 2020. –132 b.
6. Sh.R.Qobilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2014. –136 b. 12-14-39 b.
7. YErimeyeva V.D., Xrizman T.P. Malchiki i devochki – dva raznykh mira. Neyropsixologi – uchitelyam, vospitatelyam, roditelyam, shkolnym psixologam. - M.: Linka-press., 1998. 184 s.